

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI BELARUSGA KELDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Belarus
Respublikasiga keldi.**


“Minsk” milliy aeroportida davlatimiz rahbarini Belarus Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Nikolay Snopkov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston yetakchisi 27-iyun kuni Minsk shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – YOIL: KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH SARI NAVBATDAGI QADAMLAR

**O‘zbekiston Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev
26-27-iyun kunlari amaliy
tashrif bilan Minsk
shahrida bo‘ladi va Oliy
Yevroosiyo iqtisodiy
kengashining (YOIK)
navbatdagi yig‘ilishida
kuzatuvchi davlat rahbari
maqomida ishtirok etadi.**



Davomi 2-betda

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrlı yurtdoshlar!

Avvalo, Yangi O‘zbekistonning yangilayotgan matbuotida, teleradiokanallar, internet nashrlari, nashriyot va matbaa korxonalari-da, axborot xizmatlari va platformalarida o‘z burchini sidqidildan ado etib kelayotgan siz, hurmatli jurnalistlar, muhtaram faxriylarni, barcha ijodiy va texnik xodimlarni bugungi kasb bayramingiz bilan chin qalbindan samimiy muborakkobd etaman.

Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi o‘ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini hammamiz sezib-anglab turibmiz.

Shu ma’noda, bepoyon mediaolamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat’iy himoya qiladigan jurnalist ahlining mashaqqatli mehnatini muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatan posbonlarining jasoratiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi.

Ushbu qutlug‘ ayyomda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarga o‘z iste’dodi, professional mahorati bilan munosib hissa qo‘shib kelayotgan ommaviy axborot vositalarining barcha xodimlariga xalqimiz nomidan yuksak hurmat va ezgu tilaklar izhor etish men uchun katta sharaftir.

Aziz do’stlar!

Atoqli jaded bobomiz Hoji Muin aytganidek, **“Matbuot tarixi — Uyg‘onish davri tarixining bir bo‘lagidir”.**

Biz keyingi yillarda, ulug‘ ajdodlarimiz boshlab bergan ibrati an’analarni davom ettirib, demokratik jamiyatning muhim sharti va tamoyili bo‘lgan ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratmoqdamiz.

Ana shunday yondashuv tufayli media makonimizga ilg‘or loyiha va texnologiyalar, yangicha mulkiy munosabatlar jadal kirib kelmoqda. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan 2 ming 400 ga yaqin ommaviy axborot vositalarining 65 foizi nodavlat sektor hissasiga to‘g‘ri kelayotgani, xususiy nashrlar, teleradiokanallar, internet resurslari tobora ortib, ulardan foydalanuvchilar soni 14,7 milliondan 32,7 millionga yetgani, axborot kontentlarini yaratuvchilar safi kengayib borayotgani, hech shubhasiz, mamlakatimizning media sohasidagi salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, milliy mediakontentni rivojlantirish yo‘lida yosh ijodkorlar, mustaqil studiya va produserlik markazlari faoliyati qo‘llab-quvvatlanayotgani virtual makonda yuksak sifatli, raqobatbardosh loyihalar paydo bo‘lishi uchun zamin yaratmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini, matbuot va so‘z erkinligining qonuniy ijrosini ta’minlash bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz kelajagimiz egalari bo‘lgan farzandlarimizni barkamol etib tarbiyalash bilan birga, ularni zararli axborotlardan himoya qilishga ham alohida e’tibor bermoqdamiz. Bu borada 2030-yilgacha bolalar uchun mo‘ljallangan milliy kontentlar, jumladan, nashr mahsulotlari

foйда solig‘idan ozod qilinib, ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida belgilangani, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish tartibi joriy etilgani muhim qadam bo‘ldi.

Ana shu o‘zgarishlarning davomi sifatida yaqinda Bolalar kontentini rivojlantirish markazini tashkil etdik. Ushbu markaz yosh avlodimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni ezgulik va ma’rifatga oshno etish bo‘yicha amaliy harakatlarni boshlab yuborgani albatta e’tiborlidir.

Bu haqda gapirganda, onlayn-platforma va veb-saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilganini ham qayd etish lozim.

Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanayotgani jurnalistika uchun katta imkoniyatlar ochish bilan birga, bu boradagi ishlarimizni zamon talablariga mos holda yo‘lga qo‘yishni talab etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda o‘z kasbini, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini puxta egallagan, jonkuyar va vatanparvar yangi jurnalistlar avlodi yetishib kelayotgani barchamizni xursand qiladi.

Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalarida xolislik va qonun ustuvorligini ta’minlash, professional bilim va mahoratni oshirib borish, axborot tarqatishning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish, aholi o‘rtasida axborot, bahs va muloqot madaniyatini shakllantirish, jamiyatimizdagi turli illatlar, korruptsiya balosiga qarshi kurashish kabi dolzarb vazifalar bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz zarur.

Qadrlı ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Mamlakatimiz jurnalistlari va ijodiy jamoalari tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, bu yil “Oltin qalam” milliy mukofoti birinchi marta 27-iyunda — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida topshirilmoqda.

Fursatdan foydalanib, bugun sizlarning ishtirokingizda tantanali ravishda taqdirlanadigan barcha tanlov g‘oliblarini va yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan soha xodimlarini chin qalbindan samimiy tabriklayman.

Sizlarning har biringiz kelgusida o‘z tajriba va mahorat maktabingizni yaratib, milliy jurnalistikamiz ravnaqiga yanada katta hissa qo‘shasizlar, deb ishonaman.

Hech shubhasiz, ommaviy axborot vositalari xodimlarining mashaqqatli mehnatini qadrlash, ijodiy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash bundan buyon ham Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, qalbindagi eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Doimo sog‘omon bo‘ling, mas’uliyatli va sharaflı mehnatingizdan baraka toping, azizlar!

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash, so‘z va matbuot erkinligi, ochiqlik tamoyilini mustahkamlashga qo‘shayotgan munosib hissasi, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, Yangi O‘zbekistonda erishilayotgan ulkan yutuqlarni keng targ‘ib etishdagi katta xizmatlari, yuqori malakali, zamonaviy jurnalist kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Mirzaaliyev Ikboljon Mirzakarimovich — “Jadid” gazetasi bosh muharriri

“Do‘stlik” ordeni bilan

Amangeldiyeva Raixan Kdirbayevna — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Nukus teleradiomarkazi filiali tasvir yozish guruhi katta elektr mexanigi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Kenjayeva Zoxida Abdullayevna — To‘raqo‘rg‘on tumani “Davir” gazetasi muharriri, Namangan viloyati

Matyakubov Kamol — “Adolat” gazetasi muxbiri

Mirsharipov Farxodjon Arislonovich — Farg‘ona viloyati teleradiokanali bosh muharririning o‘rinbosari, So‘x telekanali guruh rahbari

Davomi 2-betda

HUDUDIIY KENGASHLAR – IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTNING BIRINCHI HALQASI

XALQ VAKILLARINING VAKOLATLARI KENGAYTIRILMOQDA



Mamlakatimizda keyingi sakkiz yilda mahalliy kengashlarga e’tibor mutlaqo o‘zgardi. Xalqimiz bu e’tiborni kengashlarning konstitutsiyaviy-huquqiy, tashkiliy-institutsional maqomi o‘zgarganidan yaqqol biladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratildi, hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ham belgilanishiga erishildi.

Kengashlarning vakolati va mas’uliyati olti barobar ko‘paydi, ularda doimiy ishlaydigan kotibiyatlar tashkil qilindi, Senatda hududiy vakillik organlariga ko‘maklashish markazi tuzildi, qonunchilikka yangi institutlar — “Kengash so‘rovi”, “Kengash tekshiruvi” kirib keldi. Bugun mahalliy hokimliklar hududdagi muhim loyihalarini kengashlar bilan maslahatlashib amalga oshirmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi tegishli farmoniga asosan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etish, xalqning bevosita ixtiyori asosida qaror qabul qilish talab etiladigan o‘ttizdan ortiq vakolat mahalliy kengashlarga o‘tkazildi.

Davomi 4-betda

27-iyun —

**Matbuot va ommaviy axborot
vositalari xodimlari kuni**

XALQ VA DAVLAT O‘RTASIDAGI OLTIN KO‘PRIK

**Har yili 27-iyunda nishonlanadigan Matbuot va ommaviy axborot
vositalari xodimlari kuni taqvimdagi shunchaki sana emas, balki mamlakatimiz hayotida so‘z erkinligi,
ochiqlik va oshkoralik tamoyillari mustahkamlanib borayotganini aks ettiruvchi muhim voqeadir.
Ushbu sana yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar o‘zagini tashkil etuvchi demokratik tamoyillarning qay
darajada chuqur ildiz otganini ko‘rsatib beradi.**



Yangi O‘zbekistonning poydevori aynan ochiqlik, shaffoflik va xalq bilan muloqotga asoslangani bois, OAVga qaratilgan yuksak e’tibor va jurnalistlar uchun yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar bu jarayonning ajralmas qismi, desak to‘g‘ri

bo‘ladi. Sababi OAV vakillari jamiyat va davlat o‘rtasida oltin ko‘priklarni vazifasini o‘taydi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari jurnalistlarga qarata **“Xalqqa adolatni yetkazishdan qo‘rqmanglar, ortingizda Prezident bor”**, deya baralla

ta’kidlagan. Bu ta’kid xalq manfaatlari yo‘lida jonini jabborga berishga tayyor jurnalistlar uchun tug‘ kabidir.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

► Boshlanishi 1-betda

Oripov Shuxratjon Orip o‘g‘li — “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining axborot xizmati rahbari

Raximov Abdjalol Abdiziyatovich — Chinoz tumani “Chinoz hayoti” gazetasi bosh muharririning o‘rinbosari, Toshkent viloyati

Titchuk Andrey Georgiyevich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Dunyo bo‘ylab” telekanali axborot-informatsion dasturlar muharriri va montajchisi

Urinboyev Saydulla Mardonovich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va ma‘rifat” telekanali teleoperatorlar guruhi teleoperatori

Xasanov Xaydar Xatamjanovich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi direktori o‘rinbosari

Hasanov Ro‘zimboy — “XXI asr” gazetasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati bo‘yicha muxbiri

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Nurmatov Akbar Normatovich — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining UNESCO va ixtisoslashgan media kafedrası mudiri

Xolbekova Baxor Shayimovna — “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” gazetalarining Sirdaryo viloyati bo‘yicha muxbiri

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Djumayev Ibraxim — Navoiy viloyati “Salomatlik” gazetasi muharriri

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

G‘iyosov Mirali Abdulloh o‘g‘li — Toshkent shahridagi “Sharoit plus” nodavlat notijorat tashkiloti loyiha menejeri

“Shuhrat” medali bilan

Abilov Fazliddin Ibragimovich — “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari tahririyati bosh muharririning o‘rinbosari

Avazov Dilmurod Batirovich — “O‘riat Dono” radiosi musiqa muharriri

Adilova Munojot Asrorovna — “Daryo.uz” internet nashrining tahrir bo‘limi musahhihi

Asanov Eldar Enverovich — “Asanov formati” telegram kanali asoschisi, blogger

Ahatov Sobit Temirovich — “Xabar.uz” internet nashrining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalar bo‘limi muharriri

Gapirova Nigora Umurzakovna — “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining muqovalash sexi muqovalovchisi

Djumayev Xidoyat Inoyatovich — Buxoro viloyati teleradiokanalining ijodiy ishlab chiqarish guruhi teleoperatori

Karshiyev Aziz Rajabovich — “Kun.uz” internet nashri muharriri

Koraboyev Shamshidin — Farg‘ona viloyati ommaviy axborot vositalari faxriylar kengashi faoli, fotosuratchi

Madatova Zilola Muxamadaliyevna — “Ma‘rifat” gazetasi bosh muharririning o‘rinbosari

Makarenko Nikita Anatolyevich — Ijtimoiy tarmoqlardagi “Effekt Makarenko” sahifasi asoschisi, blogger

Mamatrayimov Xolmumin Norxobilovich — O‘zbekiston Milliy axborot agentligining Surxondaryo viloyati bo‘yicha sharhlovchisi

Muminova Gulrxu Komilovna — Samarqand viloyati “Zarafshon” va “Samarqandskiy vestnik” gazetalari tahririyati maxsus muxbiri

Muslimov Shuxrat Zikrullayevich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston MTRK teleradiomarkazi” davlat muassasasi televideniye va radio ko‘chma texnika xizmati boshlig‘i

Nur Ahmad Hojiboy o‘g‘li — Toshkent shahridagi “SAS-Media” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari

Rabbimov Kamoliddin Muxiddinovich — “Kamoliddin Rabbimov” telegram kanali asoschisi, siyosatshunos va blogger

Raximov Sarvarjon Xamidjonovich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi siyosiy sharhlovchisi

Rashidova Nargizaxon Rashidovna — “Mening yurtim” telekanali eifrga uzatish bo‘limi muharriri

Sakayeva Elina Ibragimovna — “Gazeta.uz” internet nashri muharriri

Samatova Salima Abdinazarovna — Kasbi tumani axborot-kutubxona markazining abonement va foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi mutaxassisi, Qashqadaryo viloyati

Xamidov Xayrulla Ubaydullayevich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Sport” ijodiy birlashmasi sharhlovchisi

Sherova Laziza Shomilovna — “O‘zbekiston ovozi” gazetasining parlament faoliyati bo‘limi mudiri

Yaqubjonova Nilufar Oybekovna — Andijon viloyati teleradiokanalining radio guruhi katta muharriri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 26-iyun

SH. MIRZIYOYEV

SIYOSAT

O‘ZBEKISTON – YOII: KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH SARI NAVBATDAGI QADAMLAR

► Boshlanishi 1-betda

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makon negizida tuzilgan xalqaro integratsion iqtisodiy birlashmadir. Ittifoq 2014-yil 29-mayda Qozog‘istonning Ostona shahrida Belarus, Qozog‘iston va Rossiya davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma kuchga kirganidan so‘ng 2015-yil 1-yanvardan ish boshladi. 2015-yilda Armaniston va Qirg‘iziston shartnomaga qo‘shildi.

O‘zbekiston 2020-yilda YOIIida kuzatuvchi davlat maqomini olgan. Birlashma nizomiga ko‘ra, kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar YOII organlari yig‘ilishlarida qaror qabul qilish huquqisiz ishtirok etishi, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasiga mamlakat vakilini tayinlashi mumkin.

“O‘zbekistonning YOII bilan hamkorligini ushbu formatda rivojlantirish milliy manfaatlarga javob beradi va teng huquqlilik, shuningdek, ishtirokchi davlatlar tomonidan bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston Prezidenti mamlakatimiz kuzatuvchi maqomini olganidan buyon mazkur birlashma Oliy Kengashining yettita yig‘ilishida qatnashdi.

Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 26-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etdi va muhim tashabbuslarni ilgari surdi.



YOII xalqaro tashkilotlar va institutlar bilan ham faol hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, Jahon savdo tashkiloti (JST), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OYCD), Jahon bojxona tashkiloti (WCO), Xalqaro migratsiya tashkiloti (MOM) va boshqalar bilan o‘zaro aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur ittifoqqa a‘zo davlatlarning asosiy qismi Jahon savdo tashkiloti (JST)ga ham a‘zo.

Prezidentimiz so‘zining avvalida so‘nggi yillarda mamlakatimiz kuzatuvchi sifatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan 22 ta yo‘nalishda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ygani ta‘kidlandi.

Qayd etilganidek, 2024-yilda O‘zbekistonning ittifoq mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 11 foiz oshdi. Oktyabr oyida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan savdo, sanoat, moliya, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa sohalarda 40 ga yaqin chora-tadbiri o‘z ichiga olgan yangi uch yillik hamkorlik rejasi qabul qilindi.

O‘zbekiston YOIIning savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijoratni joriy etish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi qator tarmoq dasturlarida faol ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga alohida to‘xtaldi.



Xususan, mamlakatimiz yetakchisi o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga chaqirdi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va YOII davlatlari o‘rtasidagi savdoda tarif va notarif cheklavlarni qo‘llamaslik masalasini ekspertlar darajasida ishlab chiqish taklif etildi. Sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va vositalariga qo‘shilishdan manfaatdorlik bildirildi.

— Qo‘shma loyihalarni ilgari surish uchun ishonchli moliyaviy manbalarni shakllantirish maqsadida kelgusi yil boshida tartib-taomillarni yakunlab, Yevroosiyo taraqqiyot bankiga a‘zo bo‘lishni rejalashtirmoqdamiz, — degan edi O‘zbekiston yetakchisi.

Jumladan, joriy yilning 9-aprel kuni davlatimiz rahbari “O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo taraqqiyot bankini ta‘sis etish haqidagi bitimga (Ostona, 2006-yil 12-yanvar) qo‘shilishi to‘g‘risida” gi qonunni imzoladi.

Bitimning asosiy maqsadi investitsiya faoliyati orqali unga qo‘shilgan ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy o‘sishiga va ular o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga ko‘maklashishdir. Shuningdek, bank faoliyati doirasida to‘liq va samarali ishtirok etish huquqi ta‘minlanadi. Bundan tashqari, bankka a‘zo davlatlarning iqtisodiy o‘sishiga ko‘maklashish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va investitsiya faoliyati orqali Yevroosiyo hududida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, YOII doirasida raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt sohasida tizimli hamkorlik qilish muhimligi qayd etildi. Mamlakatimizni YOIIning

Bundan tashqari, O‘zbekiston Bosh vaziri boshchiligidagi YOII mamlakatlari va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlik bo‘yicha idoralararo ishchi guruhi tuzilgan. Ishchi guruhi YOII bilan o‘zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi, iqtisodiy aloqalarni tahlil qiladi va hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

2024-yil 1-oktabrda O‘zbekiston hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o‘rtasida 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma harakatlar rejasi imzolandi.

“YOII platformasida kuzatuvchi davlat sifatida ishtiroki orqali O‘zbekiston muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda, tuzilmaga a‘zo barcha davlat bilan faol hamkorlik qilyapti, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ushbu omillar esa barqaror o‘sish sur‘atini ko‘rsatayotir.

Hozir YOII tomonidan xorijiy sheriklar bilan hamkorlik aloqalari Jahon savdo tashkiloti (JST) normalari va tamoyillariga muvofiq tarzda o‘rnatilgan.

YOII xalqaro tashkilotlar va institutlar bilan ham faol hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, Jahon savdo tashkiloti (JST), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OYCD), Jahon bojxona tashkiloti (WCO), Xalqaro migratsiya tashkiloti (MOM) va boshqalar bilan o‘zaro aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, mazkur ittifoqqa a‘zo davlatlarning asosiy qismi Jahon savdo tashkiloti (JST)ga ham a‘zo.

Ushbu omillar hisobga olinib, O‘zbekiston tomoni kuzatuvchi davlat sifatida YOIIning to‘rtta pilot loyihasida ishtirok etmoqda. Xususan, Temir yo‘lda yuk tashishni raqamlashtirish loyihasi YOII davlatlari va Xitoy o‘rtasida temir yo‘l yuk tashishlarini raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Ushbu reja bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutadi va elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron hujjat aylanishi va elektron jo‘natma hamda unga qo‘shilgan hujjatlarni almashish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston vakolatli organlari vakillari 2022-yil iyun va 2023-yil yanvarda ushbu loyihani amalga oshirish bo‘yicha uchrashuvlarda ishtirok etdi. Unda mamlakatlar o‘rtasida transport va bojxona hujjatlarini elektron almashishni bosqichma-bosqich amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekistonning mazkur loyihadagi ishtiroki texnik va huquqiy sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, O‘zbekiston YOII doirasida amalga oshirish bosqichida bo‘lgan Transchegaraviy (tashqi) elektron tijorat, Iqlim kun tartibi, “Yevroosiyo agroekspress” loyihalarining tomonlar uchun samaradorligini tahlil qilmoqda.

Mamlakatimizning mazkur integratsion uyushmada kuzatuvchi davlat maqomida bo‘lishi respublikada rivojlanayotgan ilmiy va texnologik inqiloblar, xalqaro savdo, kapitalning ko‘chib yurishi, zamonaviy transport, aloqa va axborot tizimlari iqtisodiy hayotning xalqarolashuvi jarayonining global shakllangan darajaga o‘tishiga yordam bermoqda.

Yurtimizning eksport salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun YOII mamlakatlari bilan savdo aylanmasini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston va boshqa a‘zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashuv ishlab chiqarish hajmining o‘sishi, yangi texnologiyalarning keng va jadal tarqalishi, infratuzilmalarning rivojlanishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, fondlar rolining yanada oshishi, savdo va bozorlarning erkinlashuvi va boshqa yutuqlarga erishilishiga xizmat qilyapti.

O‘zbekiston Prezidentining Minsk shahrida bo‘lib o‘tadigan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida ishtiroki YOII mamlakatlari o‘rtasida investitsiya, savdo-iqtisodiy va transport-logistika sohalarda yaqin hamkorlik asoslarini mustahkamlash va kengaytirishga yangi sur‘at bag‘ishlaydi hamda mintqa xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

ORZULAR USHALIB, QALB QUVONCHGA TO‘LGAN KUN



Inson qadri uchun

Qiyналgan damlarda suyanchiq bo‘lish, mehr berib yordam ko‘rsatish xalqimizga xos fazilat. Keyingi yillarda bunday qadriyatlar yanada ulug‘lanib, hayotimizda muhim o‘rin tutib bormoqda. Masalan, nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiга amaliy yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash ishlari mahalla darajasiga tushirildi. Mazkur yangilanish esa aholi og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilishda qo‘l kelmoqda.

Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumanidagi “Dasht cho‘lpon” mahalla fuqarolar yig‘inida umrguzaronlik qilayotgan Yosinjon Yoqubov bir necha yildirki, og‘ir xastalik bilan kurashadi. U mustaqil harakatlana olmaydi. Shu bois, taxta polga tashlangan to‘shagini, kiyimlarini almashtirish, ovqatlanish va boshqa kundalik ehtiyojlarini bajarishda qiynalardi. Uning uchun oila a‘zolarining barchasi ovora bo‘lardi. Mahalladagi ijtimoiy xodim oiladagi holatdan xabardor bo‘lgach, bemor uchun funksional karavot ajratishga ko‘maklashdi. U tizimga elektron ariza kiritdi va funksional karavot fuqaroga yetkazib berildi. Natijada oilaning og‘iri yengil bo‘ldi, Yosinjonning chehrasiga kulgu indi.

— Baraka topishsin, — deydi oila bekasi Muhtarama opa ko‘z yoshlarini yashira olmay. — Ichimdan o‘tganini o‘zim bilaman. To‘qqiz yildan buyon shu xastalik bilan kurashamiz. Bizga har tomonlama amaliy yordam berishyapti. Zamonaviy funksional karavot har jihatdan qulay. Yillar davomida to‘shakka mixlangan turmush o‘rtog‘imga ortiqcha qiyinchiliklarisiz yordam ko‘rsata oladigan bo‘ldim. Bizga mana shunday qulayliklar yaratib berganlarga katta rahmat.

Oilaga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash shu bilan to‘xtatib

qo‘yilmadi. Muhtarama opaga nogironga qarab turish dalolatnomasi rasmiylashtirildi. Bu imkoniyat tufayli oila bekasi belgilangan tartibda ish stajiga ega bo‘ldi. O‘g‘li Muhiddin fermer xo‘jaligiga ishga joylashdi. Kelini Muxlisaxonga yoshlar yetakchisi tavsiyasi bilan moddiy ko‘mak berilib, bog‘cha yoshidagi qizalog‘i imtiyozli asosda MTTga qabul qilindi. Bu yurtimizda har bir inson qadrlanib, ularga teng shart-sharoit berilayotganining yaqqol dalilidir.

Bag‘dod tumanidagi “Samarqand” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi G‘ulomjon Mirzahmedov bir necha yildan beri og‘ir xastalik bilan kurashadi. Afsus, o‘tgan yili uning bir oyog‘ini amputatsiya qilishga to‘g‘ri keldi. Mahalladagi ijtimoiy xodimning fuqaro nomiga modulli son protezi uchun kiritgan elektron arizasi qanoatlantirilib, vaucher shakllantirildi. Natijada shu yil mart oyida protez manzila yetkazib berildi.

— Yaxshilarning boriga shukur, — deydi shu mahallada yashovchi Odiljon Mametov. — Qon bosimim ko‘tarilib, mustaqil harakat qilolmay qoldim. Shuni hisobga olib, elektron skuterli nogironlar aravasi berishdi. To‘g‘risi, yolg‘iz qolib, hayotga qiziqishim so‘nib borayotgandi. O‘zimni keraksiz, himoyasizdek his qilayotgandim. E‘tibordan so‘ng hammasi o‘zgardi, sog‘lig‘imda

o‘zgarishlar yuz beryapti, hayotga qiziqishim ortdi, umrimga umr qo‘shildi. Kambag‘al, ishsiz, jismoniy imkoniyati cheklanganlarga yordam va xizmatlar ko‘rsatish, muhtoj aholi qatlamini aniqlash borasidagi ishlar ko‘lami kengaydi. Ilgari ijtimoiy xizmat mahalla darajasida to‘liq qamrab olinmagan, faqat keksa yoshdagi fuqarolarga xizmat ko‘rsatilar edi. Endi bevosita mahallalarda ijtimoiy xizmatlar yo‘lga qo‘yildi. Bu esa nafaqat sohani yangiladi, balki minglab insonlar taqdirini ham ijobiy tomonga tubdan o‘zgartirdi.

Farg‘ona viloyatida nogironligi bo‘lgan 93 ming 356 shaxs va o‘zgalar parvarishiga muhtoj qariyb 2100 yolg‘iz keksaga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi va ijtimoiy xodimlar tomonidan manzilli yordamlar ko‘rsatilayapti. Joriy yilning may oyiga qadar nogironligi bo‘lgan hamda ehtiyojmand 5032 kishi protez-ortopediya mahsulotlari hamda reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta‘minlangan.

— Bu boradagi imkoniyat ko‘lami kengayib bormoqda, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi bosh mutaxassisi Sanjarbek Abdujabborov. — Avval davlat tomonidan ta‘minlanishi kafolatlangan POM va RTV soni 30 ta edi. Hozir 38 taga yetkazildi. Aytish mumkinki, bunday ijobiy o‘zgarish ko‘pdan buyon to‘shakka mixlanib qolgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga yangi imkoniyatlar tug‘dirmoqda.

Sirasini aytganda, ijtimoiy himoyaga muhtojlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularga manzilli yordam ko‘rsatish tubdan o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar mehr, e‘tiborga muhtoj kishilar, nogiron, yakka-yolg‘izlar qalbiga quvonch, umid olib kiryapti. Ularning ertangi kunga ishonchini mustahkamlayapti.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



27-iyun –

Matbuot va ommaviy
axborot vositalari
xodimlari kuniXALQ VA DAVLAT
O‘RTASIDAGI OLTIN KO‘PRIKJonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining so‘zlari keyingi yillardagi islohotlar, jurnalistika sohasi rivoji uchun qilingan amaliy ishlar, ochiqlik, oshkoralik, so‘z erkinligini kuchaytiradigan huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilinishida o‘z isbotini topdi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XV bobi ommaviy axborot vositalariga bag‘ishlandi. Ilgari senzura yo‘l qo‘yilmasligi Bosh qonunning birgina moddasida aks etgandi, xolos. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 81-82-moddalarida senzura yo‘l qo‘yilmasligi, OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish va aralashish javobgarlikka sabab bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, o‘tgan yillarda “Ommaviy aborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritildi. “Reklama to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Bu hujjatlar jurnalistlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, erkin faoliyat yuritishi uchun zamin hozirlamoqda. OAVning chinakam “to‘rtinchi hokimiyat” maqomiga ko‘tarilishi sohaning jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’siri o‘rtishiga xizmat qilmoqda.

Samarali boshqaruv tizimi xalq bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, aholining fikr-mulohazalari, ehtiyoj va muammolarini hisobga olishi shart. Xolis va haqqoniy axborot taqdim etish orqali bu muloqot yanada mustahkamlanadi, ishonch muhiti vujudga keladi. Ushbu yondashuv demokratik qadriyatlarini chuqurlashtirish, davlat idoralarining mas’uliyatini oshirish va har bir fuqaroning mamlakat hayotidagi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli strategiya asosidir.

Prezidentimiz o‘tgan yili OAV xodimlariga yo‘llagan tabrigida bugun matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib borayotganini ta’kidlagan edi. Mutaxassislar qayd etayotganidek, bugungi globallashuv va axborot asrida davlatlar o‘rtasidagi xalqaro maydonda yetakchilik uchun kurash, geosiyosiy, geoiqtisodiy manfaatlar yo‘lida bosim o‘tkazish, mamlakatlar orasida liderlikka intilish yo‘lidagi keskin raqobat axborot maydoniga ko‘chgan. Global internet tarmog‘ida har qadamda axborot xurujlari, “ommaviy madaniyat”ning zararli tushunchalari bilan to‘yintirilgan ma’lumotlar sizib yuribdi. Ayni shunday vaziyatda xalqning, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi, ilmi va tafakkurini oshiradigan, qalbga vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatning qadimiy, o‘zgarmas qadriyatlarini singdiradigan milliy kontentlarga ehtiyoj har qachongidan ham yuqori. Ayniqsa, bolalarni zararli axborotdan himoya qilish masalasi hammani o‘ylantirayotganini davlatimiz rahbari bot-bot takrorlaydi. Albatta, bu yo‘lda jurnalistlar zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklanadi. Yangidan yangi axborot saytlari, telekanallar, ijtimoiy tarmoqlarda sifatli sahifalar sonini oshirish zarur. Buning uchun mamlakatimizda yetarli imkoniyat, shart-sharoit yaratilgan.

Axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir. Har qanday jamiyatda to‘g‘ri va haqqoniy axborotga erkinlik

yaratish, dezinformatsiya va yolg‘on ma’lumotlarga qarshi kurashish davlatning eng muhim vazifalaridan. Ayniqsa, axborot xuruji ko‘paygan, tashqi axborot ta’siri tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ommaviy axborot vositalari nafaqat yangiliklarni yorituvchi, balki jamiyatdagi muammolarni ko‘taruvchi, dolzarb masalalarni kun tartibiga olib chiquvchi va keng jamoatchilikni tahlilga chorlovchi qudratli minbarga aylanishi zarur. Shu bois, Prezidentimizning bu boradagi qat’iy pozitsiyasi mamlakatimizni axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan mustahkamlash, shuningdek, har bir fuqaroning to‘g‘ri axborot olish huquqini ta’minlashga qaratilgan fundamental qadamdur. Ayni qarash O‘zbekistonning jahon axborot makonida o‘z o‘rnini mustahkamlashi, milliy manfaatlarini himoya qilishi va xalqaro miqyosda yanada ochiq, shaffof davlat imijini shakllantirishi uchun zamin yaratadi. Axborotning strategik ahamiyati xuddi mudofaa tizimi kabi milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi. Jamiyatni sog‘lom axborot muhiti yaratish, yosh avlodni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishda OAVning o‘rni beqiyos. U fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy g‘ururni mustahkamlashda ham muhim

yuritishi har qanday islohotning muvaffaqiyati garovidir. Bu esa jamiyatda sog‘lom fikr almashinuvi, innovatsion g‘oyalarning paydo bo‘lishi va ijtimoiy muloqot rivojlanishini ta’minlaydi. Ommaviy axborot vositalari muammolarni yoritibgina qolmay, hal qilish bo‘yicha yechimlar taklif qilishda ham faol ishtirok etmoqda.

OAVga qaratilayotgan e’tibor va yaratilayotgan imkoniyatlar negizida, avvalo, xalq bilan muloqot qilish, odamlarning dardu tashvishlarini eshitish, muammolarini hal etishga intilish yotadi. Jurnalistlar xalqning ko‘zi, qulog‘i va tilidir. Ular orqali xalqning ovozi hokimiyatga yetib boradi, jamiyatdagi kamchiliklar o‘z vaqtida yuzaga chiqadi hamda ularni bartaraf etish uchun zarur choralar ko‘riladi. Jarayon ikki tomonlama ahamiyatga ega: bir tomondan, OAV davlat siyosatining aholiga yetib borishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, aholining muammolari va takliflarini davlat idoralariga yetkazadi. Bu esa vertikal va gorizontal aloqalarni mustahkamlab, samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga yordam beradi. Bugun qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlarda ochiqlik hamda shaffoflik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etayotgani ham OAV faoliyatini erkinlashtirishga qaratilgan strategik yo‘nalishning yaqqol dalilidir.



Fuqarolik jamiyati rivojlanishi bevosita OAVning mustaqilligi va faolligi bilan bog‘liq. OAV jamiyatda turli fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi, ijtimoiy loyihalarni targ‘ib qiladi va aholini faol fuqarolik

vosita bo‘lib xizmat qiladi. Axborotning erkin harakati jamiyatda turli fikrlar xilma-xilligini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa demokratik rivojlanishning shartlaridan biridir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda so‘z erkinligini ta’minlash borasida katta ishlar qilindi. Ilgari yopiq bo‘lgan ko‘plab mavzular bugun ochiq muhokama qilinmoqda. Bu jarayon, birinchidan, davlat va jamiyat hayotining har bir sohasida shaffoflikni ta’minlaydi. Ikkinchidan, uzoq yillar davomida to‘planib qolgan muammolarni yuzaga chiqarish va ularga yechim topish imkonini beradi. Jurnalist va bloggerlar davlat organlari faoliyatini asosli tanqid qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy adolatsizlik holatlarini fosh etishda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotir. Bu esa, o‘z navbatida, davlat idoralari mas’uliyatini oshirib, fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yishda katta rol o‘ynadi. Mazkur jarayon zahirida davlat idoralari faoliyatidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, aholining davlatga ishonchini mustahkamlash va haqiqiy xalqparvar davlat barpo etish maqsadi yotadi.

Jurnalistlarning tanqidiy tahlil qilish imkoniyati davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va oxir-oqibatda fuqarolar manfaatlarini himoyasiga xizmat qiladi. Tanqid va konstruktiv muhokamalar yo‘q joyda rivojlanish ham bo‘lmaydi. Shu bois, OAVning erkin va mustaqil faoliyat

pozitsiyasini egallashga undaydi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi va davlat xizmatchilarining o‘z vazifaciga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi.

O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar, xususan, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish



kabi jarayonlarda OAVning roli beqiyos. Jurnalistlar nafaqat ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazadi, balki ularning samaradorligini tahlil qiladi, yuzaga kelayotgan to‘siqlar va muammolarni ko‘rsatib beradi. Bu esa islohotlarning aholi tomonidan to‘g‘ri tushunilishi va qo‘llab-quvvatlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. OAV orqali iqtisodiy islohotlarning aholi hayotiga ta’siri, yangi ish o‘rinlari ochilishi, investitsiya jalb qilinishi, eksport salohiyati oshishi, qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar, sanoatning rivojlanishi kabi masalalar keng yoritiladi. Ushbu jarayon jamiyatda o‘zgarishlarga ishonchni mustahkamlaydi va aholining faolligini oshiradi. Shu bilan birga, OAV aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va faol fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ishtirokchidir. Chunki jurnalistlar huquqiy bilimlar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar, davlat xizmatlaridan foydalanish tartibi va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati haqida ma’lumot berish orqali aholining huquqiy madaniyatini yuksaltiradi.

Fuqarolarning o‘z huquqlarini bilishi va ulardan foydalanishni demokratik jamiyatning muhim belgisidir. OAV bu borada ma’rifatparvarlik vazifasini ham bajaradi. Jamiyatda huquqiy ongni shakllantiradi va qonun ustuvorligini ta’minlashga hissa qo‘shadi. Sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi ijtimoiy sohalaridagi yangiliklar, jumladan, yangi shifoxonalar, maktablar qurilishi,

tezkorlik bilan erishish imkoniyatini yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, axborot gigiyenasi va mediasavodxonlik masalalarining dolzarbligini yanada oshirdi. Turli manbalardan kelayotgan axborot oqimi tufayli yolg‘on xabarlar va dezinformatsiyadan himoyalanih uchun jamoatchilikda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Ishonchli manbalar orqali tarqatilayotgan rasmiy axborotlar, tahliliy maqolalar va ekspertlar fikrlari jamoatchilikning to‘g‘ri xulosa chiqarishi muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa har bir fuqaroga axborotni tahlil qilish, haqiqatni yolg‘ondan ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimligini ko‘rsatmoqda. Mediadagi axborot orasidan o‘ziga kerakli va ishonchli manbalarni topa olish qobiliyati zamonaviy jamiyat a’zosining muhim xususiyatlaridan. Mediadan foydalanish madaniyatini oshirish va axborot savodxonligini rivojlantirish — jamiyatning axborot asrida o‘zini ishonchli his qilishi uchun muhim omil. Bu borada ta’lim tizimida ham tegishli dasturlar joriy etilishi, yoshlarga internetdan samarali va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalari o‘rgatilishi lozim. Shuningdek, OAVning o‘zi ham axborotning ishonchligini ta’minlashga katta mas’uliyat bilan yondashishi, shubhali ma’lumotlarni tarqatishdan tiyilishi shart.

Mamlakatimizda so‘z erkinligiga oid imkoniyatlar ommaviy axborot vositalari xodimlari zimmasiga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Bu mas’uliyat, birinchi navbatida, xalq manfaati yo‘lida xolis va haqqoniy axborot tarqatish, jamiyatda to‘g‘ri muloqot madaniyatini shakllantirish, turli fikr va qarashlarni hurmat qilish, eng muhimi, mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Axborot maydonidagi globallashuv sharoitida OAV xodimlari zimmasiga tushadigan javobgarlik yanada ortadi. Jurnalistlar nafaqat mahalliy, balki global axborot oqimini ham tahlil qilib, milliy manfaatlarimizga mos keladigan xulosalarni shakllantirishi lozim. Shu bois, ularning professional mahoratini oshirish, axborotni chuqur tahlil qilish, voqea-hodisalarni har tomonlama yoritish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz o‘tgan yili OAV xodimlariga yo‘llagan tabrigida ko‘p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma’naviy-intellektual fazilatlariga ega zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi, deya ta’kidlagani ham bejiz emas.

Darhaqiqat, xalqaro tajriba almashish, xorijiy OAV bilan hamkorlik qilish va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish jurnalistlarning faoliyatini yanada kengaytiradi. O‘quv kurslari, seminarlar va boshqa tajriba

almashish dasturlari jurnalistlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, yangi jurnalistik janrlar va yo‘nalishlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Jumladan, ma’lumotlarga asoslangan jurnalistika (data journalism) kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish jamiyatdagi muammolarni chuqur o‘rganish va ularga tizimli yechim topish imkonini beradi. OAV xodimlari orasida axloqiy normalarga rioya qilish, axborotni tekshirib tarqatish va shaxsiy daxlsizlik huquqini hurmat qilish kabi tamoyillarga qat’iy amal qilish muhim.

OAV xodimlarining erkin faoliyat yuritishi uchun barcha sharoit yaratilishi, haq-huquqlari qonuniy himoya qilinishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Davlatimiz rahbarining bu boradagi qat’iy siyosati tufayli jurnalistlar faoliyatiga to‘sqinlik qilishga urinishlar keskin taqiqlanmoqda. Bu esa so‘z erkinligi kafolatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yurtimizda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini nishonlash shunchaki rasmiy tadbir emas, balki so‘z erkinligi tamoyillariga sodiqlik, ochiqlik va oshkoralik sari qo‘yilgan dadil qadamlar e’tirofidir. Bu OAVning chinakam “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida e’tirof etilishi, jumalistlarga katta ishonch bildirilishi va mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda ularning o‘rnini beqiyos ekanining yorqin ifodasidir. O‘zbekiston demokratik rivojlanish yo‘lida OAVni asosiy tayanchlaridan biri sifatida ko‘radi va u orqali jamiyatni yanada demokratlashtirish, har bir fuqaroning erkin fikr bildirish va axborot olish huquqini to‘laqonli ta’minlashga intiladi. Bu esa mamlakatning har bir fuqarosi o‘zini o‘zgarishlarning bir qismi sifatida his etishi, davlatning fuqarolar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi va jamiyatdagi muammolarga birgalikda yechim topishga intilishini anglatadi.

Kelgusida ham OAVning jamiyatdagi o‘rni yanada mustahkamlanib, demokratik o‘zgarishlarning ilg‘or drayveriga aylanishiga shubha yo‘q. Mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi, aholining farovonligini oshirish va O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro’sini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining hissasi beqiyos bo‘lib qolaveradi. Jurnalistlarning har bir so‘zi, har bir chiqishi jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga turki bo‘lishi, odamlarni ezuq maqsadlar sari birlashtirishi va mamlakatimizning yorqin kelajagini qurishga xizmat qilishi lozim. Bu yo‘lda davlat tomonidan barcha zarur shart-sharoitlar yaratilib, OAVning mustaqilligi va erkinligi qonuniy himoya qilinishi davom ettirilishi ayni muddao.

Zero, faqat erkin va mustaqil matbuotgina chinakam demokratik jamiyatning ko‘zgusi bo‘la oladi, uning nafas olishiga imkon beradi va jamiyatning sog‘lom rivojlanishiga zamin yaratadi.



Fuqarolarning mahalliy kengashlarga elektron jamoaviy murojaat qilishi bo'yicha yangicha tizim yaratiladi

Mahalliy kengashlarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining hisobotini eshitish tizimini takomillashtirish, bunda hisobot (axborot)ni eshitishning davriyligini qayta ko'rib chiqish, ayrimlarini zaruratga ko'ra eshitish tartibiga o'tkazish belgilandi. Chunki bugun 370 dan ortiq qonun hujjatida 50 ga yaqin davlat organining mahalliy kengashlarga 110 ta hisobot va axborot taqdim etishi belgilangan. Bu esa hisobotlarni maqbullashtirish ehtiyojini paydo qiladi.

Kengashlar faoliyatida shaffoflikni oshirish maqsadida mansabdor shaxslarning hisoboti kengash sessiyasi muhokamasidan so'ng "E-Kengash" platformasidagi tegishli mahalliy kengashlar sahifalarida e'lon qilib boriladi.

Mahalliy kengash qarorlarini qabul qilish jarayoni ochiqligini ta'minlash maqsadida fuqarolarning sessiya ishini bevosita kuzatish tizimi yo'lga qo'yiladi. Mahalliy kengash sessiyalarida fuqarolarning sessiya ishiga aralashish huquqsiz kuzatuvchi sifatida ishtirok etish tartibi joriy etiladi.

Fuqarolar tomonidan mahalliy kengashlarga elektron jamoaviy murojaat qilish bo'yicha yangicha tizim yaratiladi. Mahalliy kengashlar huzurida jamoatchilik vakillari, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda ilmiy doira vakillaridan iborat maslahat guruhlari tuziladi va kengash qarorlarini qabul qilish jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari xalqaro hamkorligining huquqiy asoslari mustahkamlanadi.

Norma ijodkorlik vakolati kengaymoqda

Farmon bilan mahalliy ahamiyatga molik qator vakolatlarni mahalliy kengashlarga o'tkazish belgilandi. Xususan, hozir hokimlar vakolatida bo'lgan davlat ko'chmas mulkidan foydalanilish uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari, dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash, dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini belgilash kengashlarga o'tkazilishi belgilandi. Shuningdek, ijtimoiy muhofazaga muhojir, ish topishda qiyalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rnlarning eng kam sonini belgilash va xaziraga qo'yish, yo'llarning ayrim qismlarida harakatlanish tegirligini oshirish yoki kamaytirishga (tegishli yo'l belgilari o'rnatib) ruxsat berish vakolati ham kengashlarga o'tadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: mahalliy kengashlarga buncha e'tibor qaratishdan maqsad nima?

Mahalliy kengashlar aholiga boshqaruv jarayonida o'z hududidagi qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish imkonini berib, jamiyat manfaatlarini ifodalaydi va mahalliy muammolarni hal qilish orqali ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Bu esa demokratik jarayonlarni kuchaytiradi, kengashlar davlat siyosatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirib, hukumat va aholi o'rtasida ko'priq vazifasini bajaradi.

Mahalliy boshqaruvning eng yaxshi shakli, bu — xalq vakillari ishtirok etadigan, aholiga xizmat qiladigan boshqaruvdir. Aholini birlashtirib turuvchi sifatida mahalliy kengash qancha kuchli bo'lsa, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi. Zero, xalqimizda "O'ttiz kishi bilan kengash, bir kishi bilan ish ko'r" degan maqol bejiz aytilmagan.

huzuridagi Mahalliy boshqaruv forumi turli davlatlar mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida raqobatbardoshlik, inklyuziv rivojlanish hamda raqamli xizmatlar ko'rsatish kabi masalalarda tajriba almashuvini tashkil etadi.

Osiyoda esa ASEANning shaharlararo hamkorlik platformalari orqali transchegaraviy savdo va infratuzilma loyihalari rivojlantirilmoqda. BMtning Habitat dasturi shaharlar o'rtasidagi barqaror rivojlanishga qaratilgan loyihalarni birlashtiradi. Ushbu mexanizmlar orqali siyosiy va ma'muriy jihatdan tajriba almashish, umumiy muammolarga birgalikda yechim topish bo'yicha sa'y-harakatlar samarali amalga oshirilmoqda.

Bunday imkoniyatlarning yaratilishi, ya'ni farmon orqali mahalliy kengashlar faoliyatida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilishi ayni paytda kun tartibiga xalqaro hamkorlikni, diplomatik muloqot va jamoatchilik bilan aloqalar sohalarida maxsus o'quv dasturlarini joriy etish masalasini qo'yadi.

Zero, mazkur sohalarda zarur ko'nikma va salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash mahalliy kengashlarning tashqi aloqalarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikda faol ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tayyorgarlik mahalliy darajada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi barobarida farmonda belgilangan maqsad va vazifalarning ijrosini to'liq ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy kengashlarimizning xalqaro maydondagi faol ishtiroki, shuningdek, ularni global hamkorlik tarmoqlariga jalb etish orqali inklyuziv, javobgar va hisobdor mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin. Bu esa yangi O'zbekistonda barpo etishdagi muhim ustuvorliklardan biri bo'lib, davlat boshqaruviga ochiqlik, samaradorlik va jamoatchilik ishonchini oshirishga qaratilgan islohotlarning uzviy davomi sifatida namoyon bo'ladi.

HUDUDIY KENGASHLAR – IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOTNING BIRINCHI HALQASI

XALQ VAKILLARINING VAKOLATLARI KENGAYTIRILMOQDA



Sakinaxon SAIDG'OZIYEVA,
Xalq deputatlari Toshkent shahri
kengashi deputati

Aholi muammolarini hal qilishda moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlar

Mahalliy kengash deputatlari o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlariga ko'ra, aholi ko'tarayotgan aksariyat masalalar (ichki yo'llar ta'miri, kommunal sohadagi muammolar, kanalizatsiya, obodonlashtirish, ijtimoiy infratuzilma ta'miri kabilar) yechimi moliyaviy mablag'ga borib taqalmoqda.

Mahalliy budgetni qabul qilsa-da, deputatlarning o'z okrugidagi muammolarni budget orqali hal qilish imkoniyati yetarli emas edi. Ba'zi tadbirkor deputatlar aholi muammolarini o'z mablag'i hisobidan hal qilish berishi mumkin. Buni ko'rgan boshqa fuqarolar o'zlarining deputatlaridan "Siz ham bizga muammoni hal qilib bering, ana narigi mahalladan saylangan deputat qilyapti-ku", deya talab qilish holatlari ham uchrayotgandi. Ayrim hollarda deputatlar muammolarni hal qila olmasliklari sababli saylovchilar qabuliga bora olmagani ham bor gap.

Farmon bilan tasdiqlangan konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga muvofiq, kelgusida xalq vakillarining bunday holatga tushmasligi, ularning obro'sini va aholi muammolarini hal qilishdagi imkoniyatini oshirish maqsadida hujjatda mahalliy budgetlar loyihasini shakllantirishda hududlar toifasidan kelib chiqib, mahalliy budget xarajatlarining 3-5 foizini bevosita mahalliy kengash deputatlarining tashabbusi asosida shakllantirish, Senat bilan hamkorlikda "Saylovchi — deputat — hokim — kengash" to'rt bo'g'inli o'zaro hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish belgilandi.

Bunda hududlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda "mahalla yetiligi" hamda mahalliy kengashlar deputatlarining ishtirokini ta'minlash tartib-taomillarini belgilash, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya dasturlari loyihalarini dastlab mahalliy kengashlarda muhokama qilish, ularda belgilangan har bir vazifaning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan samarali deputatlik nazoratini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Ma'muriy, budget va fiskal nomarkazlashtirish asosida hududlarning

ma'muriy va moliyaviy mustaqilligini yanada oshirish orqali ular tashabbuskorligini kuchaytirish, bunda tuman (shahar) mahalliy budgetlariga ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig'imlar, to'lovlar, jarima va ajratmalarni yo'naltirish masalasini ko'rib chiqish vazifalari ham qayd qilingan.

Yana bir muhim jihat bu — deputatlarning mahalliy kengashlar sessiyalari doimiy komissiyalari majlislariga kelib-ketishi masalasi. Agar 2017-yilgacha mahalliy kengashlar yilda 4 marta yig'ilish o'tkazgan bo'lsa, hozir bir oyda 2 marta sessiya o'tkazishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa deputat uchun bir oyda 4 marta viloyat, tuman markaziga kelib-ketish zaruratini tug'diradi. Toshkent shahrida balki bilinmas, lekin viloyatlarda 100-300 kilometr lab masofani bosib o'tishga to'g'ri kelyapti.

Endi bunday holatlarning oldini olish uchun mahalliy kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish, ularning o'z saylangan viloyat, tuman va shaharlari doirasida deputatlik vazifalarini bajarishi uchun "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunning 17-moddasini (deputatning transportda tekin yurish huquqi) amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish belgilandi.

Tashkilotlar rahbarlarining o'z xodimi bo'lgan deputatlarning mahalliy kengash sessiyasi, doimiy komissiyalari, partiya guruhlar majlislarida ishtirok etishi, saylovchilari bilan uchrashuvlar o'tkazishi, fuqarolar qabulini o'tkazishiga to'sqinlik qilmasligi mustahkamlandi.

Mahalliy mas'ullarning javobgarlik choralari

Hududdagi deyarli barcha organning kengashlar oldida hisobdorligi belgilangan bo'lsa-da, xalq deputatlari ushbu organlar ishidan qoniqlik hosil qilmasa, ularga qanday chora qo'llashi masalasi ochiq qolgan edi. Bu

esa ayrim mansabdor shaxslarning kengashlar oldidagi mas'uliyati susayishiga sabab bo'layotgandi. Masalan, hisobot berish uchun xalq vakillari oldiga shaxsan o'zi kelmay, balki o'rinsosarlari, gohida esa bosh mutaxassislarini yuborish holati uchrayotgan, deputatlar tavsiya qilgan masalalarni hisobga olmaslik, ayrim hollarda esa deputatlik so'rovlariga javob bermaslik holati kuzatilayotgan edi.

Kelgusida bunday holatlarning oldini olish maqsadida farmonda mahalliy kengash qarori bilan lavozimga tasdiqlanadigan, tayinlanadigan, kengashga hisobdor bo'lgan mansabdor shaxslarning mahalliy kengashlar oldidagi javobgarligini belgilash vazifasi qo'yildi. Bunda ijro etuvchi hokimiyat organlari hududiy bo'linmalarining mansabdor shaxslariga nisbatan egallab turgan lavozimga noloqliqligi, intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha yuqori turuvchi organga taqdimnoma kiritish kabi choralarni belgilash nazarda tutilgan.

Shu maqsadda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi faoliyati va vakolatlarini kengaytirish choralari ko'riladi. Bunda ushbu komissiyaga kengash qarori bilan lavozimga tasdiqlanadigan, tayinlanadigan, lavozimga tayinlanishda kengash rozligi olinadigan mansabdor shaxslarning ham odob-axloq normalarini buzganlik bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish huquqi berilmoqda.

Hokim o'rinsosarlarining kengashlar oldidagi mas'uliyati

Qonun hujjatlarida hokimlarning o'z nomzodlari tasdiqlanishidan avval mahalliy kengashlarga hududni rivojlantirish dasturlarini taqdim etish vazifalari belgilangan. Lekin hokim ushbu vazifalarni bir o'zi emas,



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



balki butun jamoasi bilan bajaradi. Shu maqsadda endi viloyat, tuman (shahar) hokimi o'rinsosarligiga nomzodlarni tegishli mahalliy kengashlar doimiy komissiyalarida dastlabki tarzda muhokama qilish, kengash sessiyalarida nomzodlarning o'z yo'nalishi bo'yicha hududni rivojlantirish dasturlarini taqdim etish tartibi joriy etiladi.

Albatta, bunday tartibning amaliyotga kiritilishi hokim o'rinsosarlarining aholi, ularning vakillari sifatida deputatlar oldida mas'uliyatini oshirishga, faqat nomzodi emas, balki o'z yo'nalishi bo'yicha hududdagi dolzarb masalalarni kengashning tegishli yo'nalishdagi doimiy komissiyasi bilan muhokama qilish va o'zining dasturini taqdim etishiga, bu dasturning

bajarilishi ustidan xalq nazorati ta'minlanishiga olib keladi.

Muammolarga tezkor munosabat bildirish

Mahalliy kengashlarga oid qonunchilikka ko'ra, ushbu organlarning sessiyalari har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Lekin hozirgi tezkor, shiddatli zamonda hududlarda sodir bo'layotgan u yoki bu masala, muammolar bo'yicha aholining tezkor ma'lumot olishi ehtiyojini tug'dirmoqda. Shunday vaziyatlarda to bir hafta oldin sessiya chaqiruvchiga vaziyat tubdan o'zgarib ketishi mumkin. Hozir viloyat, tuman, shaharlar darajasida yuzlab organlar mahalliy kengashlarga hisobot (axborot) berishi belgilangan (masalan, yillik, olti oylik, choraklik hisobotlarni berishning aniq taqvim rejasini mavjud), lekin ularning hisobot berish vaqti aniq belgilangan bo'lsa-da, shoshilinch hollarda zudlik bilan eshitish imkonini bermaydi.

Shu maqsadda endi xuddi parlamentdagi "Hukumat soati" kabi mahalliy kengash deputatlarining shoshilinch vaziyatlarda tezkor javob berishni talab qiladigan so'rovlariga sessiya chaqirmay, muayyan miqdordagi deputatlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotini eshitish bo'yicha "Kengash soati" instituti joriy etiladi.

Bunday tartibning joriy qilinishi aholini qiziqtiradigan ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan mahalliy mas'ullarning javobini tezkor olish va aholiga yetkazish imkonini beradi. Buning uchun sessiya o'tkazishni haftalab kutishga zarurat qolmaydi.

Munosabat

Mamlakatimizda keyingi yillarda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Ushbu jarayon mahalliy kengashlarni siyosiy-huquqiy tizimning to'laqonli va ta'sirchan subyektiga aylantirmoqda. Bunday sharoitda ularning xalqaro va mintaqaviy hamkorlikdagi faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, faoliyatida xalqaro standartlar asosida tashkil etishni rag'batlantirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim shartiga aylanmoqda.

Mahalliy kengashlar faoliyatini takomillashtirish va ularning davlat boshqaruvidagi o'rini yanada mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu bois, davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida mahalliy kengashlar faoliyatida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga alohida urg'u berilgani bejiz emas, albatta.

Ushbu yondashuv, o'z navbatida, mahalliy darajada samarali boshqaruvni ta'minlash, joylardagi muammoli masalalarga tezkor va oqilona yechim topish hamda islohotlarning amaliyotdagi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.



Eldor TULYAKOV,
"Taraqqiyot strategiyasi" markazi
ijrochi direktori

Hozirgi kunda mahalliy kengashlarning vakolatlari tobora kengayib, davlat va jamiyat hayotidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Jumladan, mahalliy kengashlar davlat dasturlari ijrosini ta'minlash, joylarda qonunlar bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, mas'ul idoralar faoliyati yuzasidan hisobotlarni eshitish kabi zarur funksiyalarni bajarmoqda.

Mahalliy kengashlar bunday ko'lamli vazifalarni samarali amalga oshirishi uchun xorijiy va xalqaro ilg'or tajribalarni chuqur

o'rganishi hamda milliy manfaatlariga mos ravishda amaliyotga tatbiq etishi zarur. Bu esa nafaqat mahalliy boshqaruvning sifati va samaradorligini oshiradi, balki aholining davlat idoralariga ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtaiy nazardan, xalqaro maydonda mahalliy darajadagi hamkorlik yo'lga qo'yilishi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni joyning ehtiyoj va xususiyatlariga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi. Bu esa amalga oshirilayotgan tashabbuslarning natijadorligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Farmonda transchegaraviy hamkorlik masalasiga alohida urg'u berilgan. Suv resurslaridan samarali foydalanish, chegaralari infratuzilmani rivojlantirish, sanitariya talablari, savdo aloqalari va sarmoya loyihalarini muvofiqlashtirish kabi masalalar davlatlarning mahalliy darajadagi idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni talab etadi. Bunday muammolarni hal etish uchun qo'shni davlatlarning mahalliy kengashlari bilan mintazam muloqot va institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim sanaladi. Shuningdek, qo'shni mamlakatlar mahalliy kengashlari bilan transchegaraviy loyihalarda ishtirok etish, xalqaro grantlarni jalb etish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish imkoniyatini birlashtiradi ham.

Qayd etish kerakki, O'zbekistonda mahalliy kengashlar faoliyatida xalqaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan qonuniy asos hali

Osiyoda esa ASEANning shaharlararo hamkorlik platformalari orqali transchegaraviy savdo va infratuzilma loyihalari rivojlantirilmoqda. BMtning Habitat dasturi shaharlar o'rtasidagi barqaror rivojlanishga qaratilgan loyihalarni birlashtiradi. Ushbu mexanizmlar orqali siyosiy va ma'muriy jihatdan tajriba almashish, umumiy muammolarga birgalikda yechim topish bo'yicha sa'y-harakatlar samarali amalga oshirilmoqda.

yetarli darajada shakllanmagan. Hozircha bunday hamkorlik, asosan, markaziy organlar orqali amalga oshirilmoqda. Shuning uchun mahalliy kengashlarning bevosita xalqaro hamkorlik aloqalariga kirishishi huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlanishi zarur. Ya'ni mahalliy vakillik organlarining xalqaro aloqalari uchun huquqiy asos yaratilishi lozim. Shu maqsadda farmonda mazkur masalani huquqiy jihatdan tartibga solishga doir topshiriqlar ham qayd etilgan. Bu nafaqat vakolatlarni aniq belgilab berish, balki xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini qonunchilik orqali mustahkamlash uchun zamin bo'ladi.

Farmonga ko'ra, mahalliy kengashlarning xalqaro darajadagi vakillik organlari uyushmalariga a'zo bo'lishi masalasini o'rganish dolzarbdir. Bu, avvalo, o'zaro tajriba almashishga imkon yaratadi, shuningdek, aniq masalalar bo'yicha qo'shma yechimlarni

ishlab chiqish, hamkorlik loyihalarini amalga oshirish va tegishli idoralar bilan aloqalar o'rnatishda muhim platforma bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy tilda aytganda, bu — kengashlararo networking mexanizmlari orqali o'zaro hamkorlikni faollashtirish demak. Kengashlarimiz uchun xalqaro tashkilotlar bilan bevosita muloqot kanallarining yetarli emasligini inobatga olsak, bunday imkoniyat, shubhasiz, kengashlararo hamkorlik istiqbollarini kengaytirishga yo'l ochadi.

Xususan, jahon tajribasida mazkur yo'nalishda qator samarali modellar shakllangan. Jumladan, Yevropa Ittifoqidagi shahar va hududlar Yevropaning mintaqaviy kengashi (CEMR) orqali mintazam hamkorlikni yo'lga qo'ygan. A'zo hududlar transport, ekologiya, turizm, ijtimoiy himoya va boshqa sohalarda umumiy siyosatni muhokama qilish va tajriba almashish imkoniga ega. OECD

SIRTQI TA’LIM TUGATILDI

TALABALAR O‘QISHNI QANDAY DAVOM ETTIRADI?

Oliy ta’lim muassasalarida sirtqi ta’lim turi tugatilgach, aholi orasida ta’limning mazkur turi nima sababdan tugatilgani, hozir sirtqi ta’limda o‘qiyotgan talabalarining o‘qishni qay tartibda davom ettirishi, sirtqi ta’limni tamomlagan mutaxassislarning faoliyat boshlashiga oid qator savollar paydo bo‘lmoqda. Mana shu savollarga javob olish maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi departamenti boshlig‘i Abduvali XOLIQOVga murojaat qildik.



— Sirtqi ta’limga qabul davlatimiz rahbarining 2025-yil 5-maydagi “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq tugatilgan. 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab ta’limning sirtqi shakliga kvota berilmadi. Shu bois, joriy yilda sirtqi o‘qishga hujjatlar qabul qilinmadi. Mazkur talab davlat OTMLari uchun ham, nodavlat oliygohlar uchun ham birdek amal qilmoqda. Xo‘sh, nima uchun bunday qarorga kelindi?

Bilasiz, sirtqi ta’lim talabalari muayyan muddat darslarda qatnashadi. O‘quv jarayonini ish, oilaviy majburiyatlar yoki boshqa hayotiy holatlar bilan birlashtirishga imkon beruvchi bu tizim, avvalo, katta yoshlilar o‘rtasida ta’limga ehtiyojni qondirish, amaliyotda samarali faoliyat yuritishga xizmat qiladi.

Bu ta’lim shaklining qayta tashkil etilishi natijasida yoshlar va katta yoshli aholi o‘rtasida

oliy ta’limga qamrov sezilarli darajada oshdi. Qator hududlarda ishlab yurgan fuqarolarga ta’lim olish imkoniyati yaratilgani ijobiy ijtimoiy va iqtisodiy natijalar berdi.

Biroq vaqt o‘tishi bilan ushbu shaklda ta’lim olishning samaradorligi, akademik intizom, sifat nazorati va bilimlar chuqurligi bilan bog‘liq muammolar namoyon bo‘ldi. Aniqlik, sirtqi ta’lim formatida tahsil olayotganlar uchun amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, muntazam bilimni baholash hamda yuqori ta’lim standartlariga rioya qilishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kela boshladi.

Aynan shu sabablarga ko‘ra, 2025-yildan boshlab, yurtimizda oliy ta’lim sifatini yanada oshirish, ta’lim jarayonida “ustoz-shogird” an‘analarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarga asoslangan o‘qitish tizimini kuchaytirish maqsadida sirtqi ta’lim shakli bosqichma-bosqich tugatildi.

Sirtqi ta’limga qabul 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab to‘xtatilgan bo‘lsa-da, hozir mazkur shaklda tahsil olayotgan talabalar uchun barcha o‘quv jarayoni belgilangan tartibda davom ettiriladi. Ular tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va fan dasturlariga muvofiq o‘qishni yakuniga yetkazish imkoniyatiga ega.

Oliy ta’lim muassasalarida ushbu talabalar uchun o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli tashkil etish, ularni zarur axborot resurslari va amaliy mashg‘ulotlar bilan ta’minlash bo‘yicha zimmasidagi mas’uliyatni to‘liq bajarishi lozim. Bu esa har bir talaba uchun ta’lim sifatini ta’minlash hamda mutaxassis sifatida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, OTMni bitirishni kafolatlaydi.

Sirtqi ta’limni tamomlagan mutaxassisni rasmiy ishga qabul qilishda muammo paydo bo‘lmaydimi, degan haqli savol tug‘ilishi ham mumkin. Avvalo, sirtqi ta’limda tahsil olib, belgilangan tartibda diplom olgan shaxslar qonunchilikka muvofiq to‘liq oliy ma’lumotli mutaxassis hisoblanadi. Ularga beriladigan diplom kunduzgi, kechki yoki masofaviy ta’lim shaklidagi diplomlar bilan teng yuridik kuchga ega. Demak, ularni davlat yoki xususiy sektorda rasmiy ishga qabul qilishda hech qanday huquqiy to‘siq mavjud emas.

Mehnat kodeksi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, ishga qabul qilishda ta’lim shakli emas, balki oliy ma’lumot haqidagi rasmiy hujjat — diplom asos bo‘ladi. Shuningdek, davlat tashkilotlari va yirik korxonalarda kadrlar tanlab olinayotganda ham sirtqi ta’limda o‘qigan mutaxassislar umumiy mezonlar asosida baholanadi.

Boshqa jihatdan, sirtqi ta’limni tamomlagan mutaxassislarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, asosan, ularning amaliy tajribasi, soha bo‘yicha bilim darajasi va doimiy o‘z ustida ishlashiga bog‘liq. Shuning uchun ularga bilim va ko‘nikmasini muntazam oshirib borish tavsiya etiladi.



Bundan tashqari, sirtqi ta’limda o‘qib, ishlab yurgan fuqarolarning ta’lim olish imkoniyati ham cheklanmaydi. Ular o‘qishni to‘liq tugallaydi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Qolaversa, kelgusida kunduzgi ta’limga muqobil shakllar, jumladan, masofaviy, kechki va maqbullashtirilgan kunduzgi (part-time) ta’lim shakllari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Ularga qabul ko‘rsatkichlari kengaytirib boriladi. Bu esa muayyan ish o‘miga ega abituriyentlar uchun o‘qish va mehnat faoliyatini bir vaqtda olib borish imkonini beradi. Masofaviy ta’lim zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etiladi. Talabalar bevosita ta’lim muassasasiga kelmay qoladi.

Shu bilan birga, kechki ta’lim shaklida o‘qish ish vaqtidan keyingi soatlarda ishlovchi shaxslarga qulay grafik asosida tashkil etiladi. Hukumat tomonidan bu borada tashkiliy-huquqiy mexanizmlar takomillashtirilib, o‘quv dasturlari talabga moslashtirilishi va ta’lim sifati ta’minlanishi bo‘yicha aniq choralar ko‘rilmog‘da.

— Yana bir jihat mavjud: hozir kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha 1-bosqichda o‘qiyotgan

talaba keyingi o‘quv yilidan o‘qishini sirtqi ta’limga ko‘chirsa bo‘ladimi? Yuqori bosqichda o‘qiyotganlar-chi?

— Talabalarning arizasiga asosan, o‘qishini sirtqi ta’lim shakli mavjud guruhlariga belgilangan tartibda ko‘chirish imkoniyati mavjud. Bunda talabalardan belgilangan muddat va tartibda o‘qishini ko‘chirish bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish talab etiladi.

2025/2026-o‘quv yilidan boshlab ta’limning sirtqi shakliga qabul to‘liq tugatilishi barcha yo‘nalishga, jumladan, ikkinchi mutaxassislikka ham taalluqli. Shu munosabat bilan ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha ham sirtqi ta’lim shaklida yangi qabul amalga oshirilmaydi. Ushbu yo‘nalishda ta’lim olishni istovchilar uchun kunduzgi, masofaviy yoki kechki ta’lim shakllarining mavjud ta’lim yo‘nalishlari tavsiya etiladi.

Bu o‘rinda asosiy maqsad ta’lim sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Shuningdek, avvalgi yillarda sirtqi ta’lim shaklida ikkinchi mutaxassislikka qabul qilinganlar tahsilni belgilangan tartibda davom ettiradi.

Mazkur farmonga muvofiq, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi hamda manfaatdor tashkilotlar bilan birga ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maqbullashtirilgan kunduzgi ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash tartibi bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqadi.

Maqbullashtirilgan kunduzgi ta’lim shakli (part-time ta’lim) — talabalarga ish joyi bilan bog‘liq faoliyatni davom ettirgan holda, kunduzgi ta’lim tizimi asosida o‘qish imkonini beradigan zamonaviy va qulay ta’lim formati bo‘lib, unda o‘quv jarayoni va ish faoliyati muvozanatli tarzda yuritiladi. Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgach, ushbu ta’lim shaklini joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘riladi.

Hozir mamlakatimizdagi 21 ta davlat oliy ta’lim muassasasida tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha masofaviy ta’lim shakli samarali yo‘lga qo‘yilgan. 2025/2026-o‘quv yilida boshqa oliy ta’lim tashkilotlarida ham masofaviy ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, masofaviy ta’lim platformalari yaratilib, zarur kontentlar bilan to‘ldiriladi. Masofaviy ta’lim shakliga o‘qishga kirish umumiy tartibda amalga oshirilib, abituriyentlardan qo‘shimcha majburiyat talab etilmaydi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

Yangi tizim amalda

RAQAMLI TIBBIYOTNING INSONIY QIYOFASI

Gulsara opa oxirgi marta ikki yil oldin tibbiy ko‘rikka borgandi. O‘shanda ham yozning jazirasida navbati kelishini uzoq kutgandi. Avvaliga tong mahali kelib, shifoxona yo‘lagini to‘ldirgan hamshaharlaridan kim oxirgi navbatda ekanini so‘radi. So‘ng ularning ko‘rsatmasi bilan stol ustidagi bir varaq qog‘ozga ism-familiyasini yozib, 15 raqamni qo‘ydi. Oldinda 14 kishi bor edi. Demak, shifokor qabuliga 14 kishidan keyin kiradi. Agar har biri uchun kamida 10 daqiqa vaqt ketsa, taxminan ikki yarim soat kutish kerak.



Ammo vaqt o‘tgani sari navbat kutayotganlar ko‘payib bordi. Aksiga olib, qog‘ozdagi navbat kamaymasdi. Shifokor qabuliga kirgan kishi zum o‘tmay tashqaridan biror kishini chaqirib olar, qaysidir hamshira o‘z tanishini hech bir so‘roq va uzrsiz ichkariga yetaklardi. Bularni jimgina kuzatayotgan Gulsara opa navbat ham bironing haqqi ekani, insof, insoniylik haqida o‘y surardi. Bularni qanday tartibga keltirish mumkin degan savolga esa aniq javob topa olmasdi. Shu tariqa u tongdan tushgacha navbat kutdi...

Aslida, bunday holat hech birmizga begona emas. Shukrki, bugun bari tubdan o‘zgardi. Inson qadri uchun boshlangan islohotlar tibbiyotda ham bo‘y ko‘rsatdi. Xususan, sohani raqamlashtirish orqali ko‘plab muammolarga barham berilmoqda. Birgina misol, Qarshi shahridagi ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika joriy yil 1-iyundan boshlab to‘liq tartibda raqamlashtirildi. Bu aholi uchun juda katta qulaylik bo‘ldi.

— Tibbiy ko‘rikka ancha bo‘lgandi bormaganimga, — deydi qarshilik Gulsara Homidova. — Yaqinda

shu maqsadda Qarshi shahri ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasiga kirdim. To‘g‘risi, bormoqchi emasdim. Sog‘lig‘imdagi bir oz o‘zgarish sabab bezovta bo‘ldim. Shifokor maslahatini olish zarur edi. Avvalgiday kun davomida navbatda turaman degan xavotir yo‘q emasdi. Bunday bo‘lmadi. Eshik oldida hamshiralarni kutib olib, kompyuterga ism-familiyamni yozib, elektron navbatga qo‘ydi. Bir yarim soatdan so‘ng aniq vaqtda kirishimni aytib, ungacha bemalol boshqa ishlarni bajarib kelishim mumkinligini bildirdi. Aytilganidek, belgilangan vaqtdan besh daqiqa oldin kelib, kutib turdim. Bir ozdan so‘ng monitor orqali meni chaqirishdi. Ohig‘i, ko‘zim bilan ko‘rmaguncha bunday o‘zgarishlarga ishonmagandim. Xursand bo‘ldim. Ilgari shifo istab kelib, ovoragarchilikdan xasta bo‘lib chiqib ketardik. Hozirgi sharoit barchamiz uchun yaxshi imkoniyat.

Bugun Qarshi shahri ahliga shahar tibbiyot birlashmasi tizimida 7 ta oilaviy poliklinika, ko‘p tarmoqli poliklinika hamda sil kasalliklari dispensari, 205 o‘rinli tug‘urug‘ kompleksi va 125 o‘rinli markaziy

shifoxona xizmat qilyapti. Bular orasida birinchilardan bo‘lib ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika zamonaviy usulda xizmat ko‘rsatishni boshlab berdi.

— Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-dekabrda “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash ishlari bosqichma-bosqich davom etmoqda, — deydi Qarshi shahri tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Sardor Pimazarov.

Bemorlar sog‘lig‘i va ularni barcha tibbiyot muassasalarida davolash uchun umumiy ma’lumotlarni saqlashga mo‘ljallangan “Elektron poliklinika” hamda belgilangan dastur orqali birlashmamizga qarashli shifo maskanlarida “elektron tibbiy karta” shakllantirildi. Bu tizim orqali ishlarni joriy yildan sinov tariqasida boshlagan bo‘lsak, hozir to‘liq yo‘lga qo‘yildi. Yil boshidan hozirga qadar “Elektron poliklinika” tizimi orqali 600 mingdan ortiq kishi shifokorlar qabuliga yuborilgan. Bu ma’lumotlar shakllantirib borilmoqda. Misol uchun, avvalgidek qog‘oz ko‘tarib yurmay, axborot tizimi orqali tug‘urug‘ majmuasiga homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar haqidagi ma’lumotlar elektron tarzda yo‘naltirilmoqda. Bundan tashqari, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025-yil

19-martdagi buyrug‘iga asosan, joriy yil 1-apreldan tizimdagi turli jumallar, hisobotlar kabi bir qator qog‘ozda bajariladigan ishlarni to‘liq elektron tartibda amalga oshirish boshlandi.

Davlat dasturida raqamli texnologiyalar joriy etilgan tibbiyot muassasalarida ulushini oshirish belgilangan. Hozir bu boradagi amaliy ishlar natijasi nafaqat aholi, balki soha vakillariga ham qulaylik yaratmoqda. Tibbiyot maskanlari uchun zamonaviy axborot uskunalari xarid qilinib, hamshiralarni IT yo‘nalishda o‘qitilmoqda.

— Yangi tizim joriy etilishi ishimizni ancha yengillashtirdi, — deydi mazkur poliklinika oilaviy shifokori Zulxumor Bolliyeva. — Birinchi navbatda, vaqt ancha tejalandi. Biror bemor haqida ma’lumot olmoqchi bo‘lsak, kompyuter orqali tezda bilib olishimiz mumkin. Ancha yillik ish tajribasiga egaman. Avval qog‘oz to‘ldirish uchun ko‘p vaqt sarflardik. Bugun yozuv-chizuvlardan artib, bemorlar bilan muloqot qilib, sog‘lom turmush tartibi targ‘ib etishga ko‘proq vaqt ajrataymiz.

— Bu yangiliklardan umuman xabarim yo‘q edi, — deydi shifokor qabuliga kelgan Bekzod Temirov. — Qizim yettinchi sinfda o‘qiydi. Ertalab poliklinikaga borishimni eshitgach, telefon orqali navbat olib berishini aytdi. U ilova orqali doktor qabuliga aniq vaqtni belgilab, navbatga yozdirdi. Belgilangan vaqtda keldim. Ikki daqiqa o‘tmay, zaldagi monitorida ism-familiyam chiqdi. Hech bir muammosiz ko‘rikka kirdim. Agar bu imkoniyat bo‘lmaganida ertalabdan kelib, hozirga qadar kutgan bo‘lardim.

Tibbiyotida “Inson qadri uchun” tamoyili bugun amalda. Sohadagi raqamlashtirish ortidan odamlarning vaqti ham, naqdi ham tejalandi. Qashqadaryo viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Alisher Boboynovning aytishicha, vohadagi tibbiyot muassasalariga reja asosida yangi tizimda ishlashga o‘tmog‘da. Bu tizim nafaqat shaharlardagi shifoxonalarda, balki chekka hududlardagi oilaviy poliklinikalarda ham joriy etilishi belgilangan. Demak, qisqa fursatlarda barcha tibbiyot muassasalarida mazkur tizim ishga tushadi.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ogohlik



BIZ HAYOTNI TANLAYMIZ!

Hozir dunyo bo‘ylab qariyb 300 million kishi giyohvandlik vositalarini suiste’mol qilyapti. Qurbonlar soni esa bir yilda 600 ming kishidan oshmoqda. Shundan ham giyohvandlik va narkotik bilan bog‘liq jinoyatlar butun insoniyat uchun dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolayotganini bilish mumkin. Zotan, bu illat shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga doim jiddiy xavf solib kelgan. Shu bois, xalqaro hamjamiyat giyohvandlikka qarshi muntazam kurashib keladi. BMT Bosh Assambleyasi qaroriga asosan, 26-iyun – Xalqaro narkotik moddalarni suiste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni etib belgilangan.

Mazkur sana har yili barcha mamlakatlarda keng nishonlanadi. Shu kungi tadbirlarda giyohvandlik va narkotikka oid jinoyatlarning aynanchi oqibatlarini keng jamoatchilikka yetkazish, aholi, ayniqsa, yoshlarda narkotik vositalarga qarshi immuniteti mustahkamlash, bu illatga qarshi kurashishda hamijadlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Sana munosabati bilan mamlakatimizda ham har yili keng miqyosda profilaktik va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda turli aksiyalar o‘tkaziladi. Joriy yilda Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi tashabbusi bilan mutasaddi davlat organlari va jamoat tashkilotlari hamda hududiy komissiyalar bilan hamkorlikda “Biz hayotni tanlaymiz!” shiori ostida qator ishlar bajarilmoqda. Poytaxtimizdagi “International Hotel Tashkent” mehmonxonasida ana shunday tadbirlardan biri tashkil etildi.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat va hududiy komissiyalar a’zolari, mutasaddi davlat organlari va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda xalqaro hamkor tashkilotlar, diplomatik korpus va omamaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida o‘tgan muloqotda ushbu tadbir nafaqat giyohvandlik va narkotikka oid jinoyatlarga qarshi kurashishdagi sa’ya-harakatlarning amaldagi ifodasi, balki xalqaro va mahalliy tashkilotlar hamkorligidagi o‘zaro ishonch va birdamlik muhitini namoyon etuvchi muhim tashabbus ekani ta’kidlandi.

“Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi 5 yilda O‘zbekistonda narkotik bilan bog‘liq jinoyatlar soni qariyb 2 barobar, noqonuniy muomaladan olingan narkotiklar musodarasini 8,5 barobar oshgan bo‘lsa, sintetik giyohvandlik vositalari musodarasini 80 barobar ko‘paygan.

Bu kabi ko‘rsatkichlar giyohvandlik muammosi nafaqat kengayib borayotgani, balki turli ijtimoiy qatlamlar, jumladan, yoshlar va xotin-qizlar orasiga ham kirib borayotganini ko‘rsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, bu tendensiyaga qarshi kurashishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki butun jamiyat — oila, ta’lim muassasalari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari birlashgan holda harakat qilish zarur.

Tadbir o‘tgan bir yil mobaynida O‘zbekiston hududida huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan musodara qilingan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalari va prekursorlarni yo‘q qilish marosimi onlayn namoyish etildi. Davlat xavfsizlik xizmatining ma’lum qilishicha, yoqish marosimida 2 tonna 135 kilogrammdan ortiq giyohvandlik vositasi yo‘q qilingan.

Tadbir doirasida milliy markaz tomonidan Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda “Biz hayotni tanlaymiz!” shiori ostida o‘tkazilgan videoroliklar tanlovi hamda Badiy akademiya bilan hamkorlikda “San’at giyohvandlikka qarshi!” shiori ostida o‘tkazilgan rasmlar tanlovi sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. G‘oliblar diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi. Tanlovda ishtirok etgan yosh rassomlarning asarlari ko‘rgazmasi tadbirga alohida ruh bag‘ishladi.

Shundan so‘ng rejissyor Eljon Abbasov tomonidan tasvirlangan “Mutlaq yovuzlik” nomli hujjati filmning qisqa roligi (tizer) namoyish etildi. Film premyerasi yaqin kunlarda bo‘lib o‘tadi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tarbiya

MAS’ULIYAT ALIFBOSI

ZAMONAVIY DUNYODA NAMUNALI
OTA–ONA BO‘LISH OSON EMAS

Muhtarama ULUG‘OVA,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Bugungi kunda jamiyatimizdagi eng dolzarb masalalardan biri — bola tarbiyasi. Har bir bola bir dunyo deb bejiz aytilmagan. Zero, ularning kelajagi, jamiyatning ertangi kuni aynan bizning qo‘limizda. Afsuski, ba’zida bu mas’uliyatning naqadar ulkanligini unutib qo‘yamiz yoxud unga yengil-yelpi yondashamiz.

Fransis Eliza Byornetning “Sirli bog” asaridagi Kolin obrazi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bolalikdan “kasal”, “bukri bo‘lasan” degan gaplar bilan ruhiyati zaharlangan Kolin o‘zini yolg‘izlikka mahkum etib, to‘shakka



mixlanib qoladi. Atrofidagilar, hatto otasi va shifokorlarning munosabati uni shu ahvolga soladi. Bu Kolinning taqdiri emas, balki atrofidagilarning noto‘g‘ri yondashuvining achchiq mevasi edi. Qissada Kolinning ruhiyatidagi ijobiy o‘zgarishlar aynan mehr, ishonch va tabiat bilan muloqot orqali shakllanadi. Asarda qahramon misolida bolalar

tarbiyasidagi muhim omillar — mehr-muhabbat, ularga ishonch, orzu-havaslariga e’tibor va shaxsiyatiga hurmat naqadar muhimligi oydinlashadi.

Ehtiyot bo‘ling: ijtimoiy
tarmoqdagi “yordam”ning ikkinchi
tomon

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda bolalarning og‘ir ahvolini ko‘rsatib, yordam so‘rash holatlari ko‘paymoqda. Videolavhalarda onalar va bemor bolalarning g‘amgin, chorasiz holati tasvirlanib, hatto bolalar yig‘layotgani, ularga ukol qilnayotgani ko‘rsatiladi. Bunday videolarni tayyorlashda blogerlar ishtirok etishi, vahimali ovoz ohangi bilan vaziyatni yanada og‘irlashtirib ko‘rsatishga urinishi, afsuski, oddiy holga aylanib bormoqda.

Lekin bir o‘ylab ko‘raylik, bunday videolar bola ruhiyatiga qanday ta’sir qiladi? Kasallikdan azob chekayotgan bolaning yaqinida turib, unga achinish bilan qarash, yig‘i-sig‘i qilish ularni qo‘rqitmaydimi? Holatini yengillashtirish o‘rniga yanada og‘irlashtirmaydimi? Yoshini anglay boshlagan o‘smir bemorlarning bunday videolarga tushirilishi ularning tengdoshlari orasida xijolatga qolishiga, o‘ksinishiga, oqibatda ahvoli yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Qadriyatlarimizda bemorning sog‘ayib ketishiga yordam berish, avvalo, uni yo‘qlash, shifo topishiga ishonitiruvchi so‘zlar bilan ko‘nglini ko‘tarishdan boshlanadi. Bemor bolalarga doim sog‘lom odamdek munosabatda bo‘lish, xijolatga qo‘ymaslik, o‘ksitmaslik lozim. Har qanday bemorga tinchlik, xotirjamlik, mo‘tadil muhit kerak. Atrofidagi qarovchilarning kayfiyati, so‘zlari, yuz ifodalari haqiqiy hamshiralik maqomida bo‘lsa, betob odam ulardan kuch-quvvat oladi, sog‘ayishiga ishonchi ortadi.



Bola huquqlari
poymol bo‘lmasin

Yana bir muhim jihat: qonunchiligimizda har bir insonni (muayyan vaziyatlar istisno) o‘z ixtiyori va ruxsatisiz videotasvirga olib, ko‘pchilik e’tiboriga havola etish taqiqlanadi. Kichikligi, o‘zini himoya qila olmasligidan foydalanib, bolalarning suratlari, videotasvirlari

ming-minglab odamlarga havola etilishi bola huquqlarining poymol qilinishi emasmi?

Shu o‘rinda yo‘l(larda, metroga kirish joylarida bolalari bilan tilanib o‘tirganlarga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Yozning issig‘ida, qishning sovug‘ida, hatto tunlari ham bolalarini qiynab, odamlar rahmini keltirishni kasb qilib olganlar oz emas. Ba’zilar bolalariga uxlatuvchi dorilar

“

Bolalarni kamsitmaslik — konvensiyaning muhim tamoyillaridan biri. Qaysi bola sovuqda emas, issiqda o‘tirishni, kechasi onasi qo‘lida qiynalib yurmay, o‘z o‘rnida uxlashni xohlamaydi?! Bola dunyosini bola nigohi, imkoniyatlari, jismoniy o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib kuzatmoq, baholamoq kerak. Shundagina uning huquqlari himoya qilingan bo‘ladi.

Mulohaza

YOT G‘OYALAR “DOYA”SI

JAMIYATDA HUSHYORLIK

BUGUN HAR QACHONGIDAN MUHIM

Jamiyat barqarorligiga tahdidning eng xavfli axborot xurujidir. Bu xavf ijtimoiy, iqtisodiy va hatto siyosiy makonlarni qamrab olishga da’vogar. Mamlakat obro’si, nufuziga putur yetkazish, odamlar tafakkurini izdan chiqarishga qaratilgan mazkur g‘oyaviy urush fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodni buzg‘unchi qarashlar domiga tortishni maqsad qilgan. Bunday sharoitda tarbiya borasida milliy qadriyat, urf-odat, an’analar ruhi bo‘y ko‘rsatishi, axborot maydonida milliy kontent yaratish vazifasi muhim va ilg‘or pozitsiyani egallashi lozim.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida bu masalaga alohida urg‘u berib, jurnalistlarni mamlakat axborot makonida milliy kontent yaratishga chaqirgan, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho berish, xalqimizni turli axborot xurujlaridan saqlash muhimligini ta’kidlagan edi.

Bugun olamshumul o‘zgarishlar davrida yashayapmiz. Mutaxassislar fikricha, milliy kontent foydalanuvchini auditoriya uchun ishlab chiqilishi zarurligini tushunish va anglash lozim. Mediamahsulotdan foydalanuvchilar ehtiyojini bilish va e’tiborga olish juda muhim. Foydalanuvchi milliy resurslardan qanoatlanmasa, milliy kontentdan o‘ziga qiziqarli va kerakli axborotni topa olmasa, o‘zga resurslardan izlaydi.

Milliy qadriyat, ma’naviyat, urf-odat, an’ana, tarix o‘z-o‘zidan va bir kunda paydo bo‘lib qolmagan. Ushbu bebaho boylikka erishish, uni asrab-avaylab, avloddan avlodga

yetkazish uchun juda katta ishtar qilingan, ota-bobolarimiz juda yo‘lda jonini ham ayamagan. Shunday ekan, ushbu merosni keyingi avlodga saqlashimiz, yanada boyitib, sayqallab, bekam-ko‘st yetkazishimiz zarur.

Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Bugun ushbu tahdidlar qatoriga qo‘shilgan radikallashuv balosidan yoshlarni muhofaza qilish eng dolzarb masalalar qatoriga chiqdi. Shaxs yoki guruhning keskin, zo‘ravon g‘oyalar va harakatlarga moyil bo‘lib borish jarayoni radikallashuvdir. Ushbu jarayonda odamlar yot g‘oyalar ta’sirida jamiyatdagi mavjud vaziyatga qarshi chiqishga, ba’zan zo‘ravonlik vositalari orqali o‘z maqsadlariga erishishga urinadi. Radikallashuvning asosiy belgilari ekstremizm, zo‘ravonlik, jamiyat yoki davlat tuzumiga qarshi chiqish, terrorizmga moyillik kabilarda namoyon bo‘ladi.

Bunday sharoitda geosiyosiy barqarorlik siyosati — davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan radikallashuv va ekstremizm

xavflariga qarshi kompleks yondashuv orqali tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash siyosati yuritiladi. Ta’lim va axborot siyosati, radikal g‘oyalarga qarshi ilmiy, ma’rifiy targ‘ibot, islom dinining asl mohiyatini tushuntirish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda ziddiyatli kontentlarga qarshi kurashish, bu maqsad yo‘lida mintaqaviy hamkorlik, chegara xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchi shaxslarni jazolash bilan birga ularni qayta ijtimoiylashtirish mazkur siyosatning bosh yo‘nalishlaridir.

Afsuski, radikallashuv XXI asr muammosiga aylanib ulgurdi. Bu jarayon ko‘plab davlatlarning xavfsizligi va barqarorligiga tahdid solmoqda.



Xususan, Markaziy Osiyodagi geosiyosiy muvozanatni saqlashda radikal g‘oyalar va terrorchilik guruhlarining faolligi jiddiy xavf tug‘dirmoqda. O‘zbekiston ushbu muammoning oldini olish va bartaraf etishda izchil va tizimli siyosat yuritmoqda.

Yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, ichki va tashqi siyosatimiz barqarorligi yo‘lida boshlangan sa’y-harakatlar so‘nggi yillarda Markaziy Osiyodagi geosiyosiy holatni ham o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, qo‘shnilar bilan iqtisodiy, tijoriy, ilmiy-ma’rifiy sohalardagi teng va ochiq hamkorlik ko‘ngildagi armonlarni aritdi.

O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida diniy bag‘rikenglik, dinlar va konfessiyalararo

totuvlik hamda hamjihatlikni qo‘llab-quvvatlaydi, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga aslo yo‘l qo‘ymaydi. Shu boisi, radikallashuvga qarshi kurashishda keng qamrovli geosiyosiy barqarorlik siyosati yuritilmoqda.

Birgina “Mehr” operatsiyalari doirasida Suriya va Iroqdagi mojaralar zonasidan qaytarilgan ayollar va bolalarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordam, radikal guruhlar ta’siriga tushgan shaxslar bilan olib borilayotgan psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya ishlari xalqaro hamjamiyat tomonidan insonparvarlikning oliy namunasi sifatida e’tirof etilmoqda. Radikallashuvga qarshi siyosat ma’rifat, huquqiy ong va ijtimoiy adolatga asoslangani oqilona yechim sifatida baholalanmoqda.

Bugun diniy radikal g‘oyalar, ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlarning axborot xuruji aholi, ayniqsa, yoshlar ongi uchun jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyos. Telekanallar, radiostansiyalar, internet saytlari, gazeta va jurnallarda minglab jurnalistlar faoliyat yuritmoqda. Biroq radikalizm, ekstremizm va terrorizmga qarshi jurnalistik yo‘nalishda ishlayotgan ijodkorlar kamchilikni tashkil qiladi. Buning ortida mavzuning murakkabligi, jurnalistlarning maxsus tayyorgarligi yetarli emasligi, xususan, radikalizm masalasining siyosiy, geosiyosiy, iqtisodiy, diniy va

berib, ularni ko‘tarib yurishi haqidagi xabarlar insonni dahshatga soladi. Bu holatlar BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan, O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qo‘shilgan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya talablariga ziddir.

Bolalarni kamsitmaslik — konvensiyaning muhim tamoyillaridan biri. Qaysi bola sovuqda emas, issiqda o‘tirishni, kechasi onasi qo‘lida qiynalib yurmay, o‘z o‘rnida uxlashni xohlamaydi?! Bola dunyosini bola nigohi, imkoniyatlari, jismoniy o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib kuzatmoq, baholamoq kerak. Shundagina uning huquqlari himoya qilingan bo‘ladi.

Bir safar uch qizi bilan tilanchilik qilayotgan, ichki ishlar xodimi bilan janjallashayotgan ayolga duch kelganman. Ayolning qizlarini boqish uchun tilanchilik qilishga majburligini aytib baqirishi, hech kimning gapiga quloq solmasligi, o‘zining va qizlarining sha’niga yaxshi bo‘lmagan bu holatni oddiy qabul qilishi achinarli hol. Bunday vaziyatda qizlarning ruhiyatiga boqimandalik kayfiyati o‘rnashib qolmasmikan? Ularning o‘ziga hurmati, jamiyatga ishonchi yemirilib bormaydimi? Respublika miqyosida bolalarning haq-huquqlarini himoya qilishga rasman mas’ul idoralar bunday holatlarga e’tibor qaratasa, ayni muddao bo‘lardi.

Kelajakka da’vat

Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu kabi muammolar jiddiy e’tibor va qat’iy chora-tadbirlarni talab qiladi. Dunyoda turli po‘rtanalar xalqlar, yurtlar taqdiriga tahdid solib turgan bir paytda vatanimiz tinchligi, osoyishtaligi, dasturxonlarimiz to‘kinligi, barqaror rivojlanish samaralariga shukrona sifatida jamiyatimizdagi o‘zimizga bog‘liq muammolarni hal etish uchun har doimgidan ko‘ra ko‘proq birlashmog‘imiz, yanada yakdil va hamqadam bo‘lishimiz shart.

Otalik va onalik mas’uliyatining alifbosi bolalarni jismonan va ma’nan qo‘llab-quvvatlash, qalbga hayotsevarlik, olam va odamlarga muhabbat nurini singdirish, noumid bo‘lishiga sira yo‘l qo‘ymaslik, izlangan va harakat qilgan insonga har qanday qiyinchiliklarni yengish yo‘llari topilishiga ishonchni singdirishdan boshlanadi. Olam qo‘zalligi-yu tabiat in’omlaridan zavqlanib, doim harakatda va atrofdegilar bilan muloqotda yashashga sharoit yaratish jigarbandlarimizning izlanuvchan, mehnatsevar, o‘ziga talabchan, jamiyatda faol insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. Bu, hech shubhasiz, kelajak avlodning sog‘lom va baxtli bo‘lishiga zamin yaratadi.

mafkuraviy jihatlaridan voqiflik darajasi pastligi kabi qator omillar yotadi. Ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida o‘tkazilayotgan anjumanlar jarayonida mazkur muammo yanada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shu boisi, jurnalistlarni axborot xuruji, dezinformatsiya va diniy radikalizm tahdidlariga qarshi ma’rifiy yondashuvlar asosida qayta tayyorlash, ularni bu murakkab jarayonlarni xolis va tahliliy yoritishga qodir mutaxassislarga aylantirish bugungi kun talabidir.

Axborot maydonidagi manipulyatsiyalar, soxta ma’lumotlar va targ‘ibot-tashviqot vositasida ongni boshqarishga qaratilgan urinishlar faqat media sohasining muammosi emas, balki milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir.

— Radikalizm faqat dinga oidmi degan savolga “ha” deb javob berish mutlaqo noto‘g‘ri ekanini alohida ta’kidlab o‘tish lozim, — deydi O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzuridagi “Ziyo” media markazi direktori Abduhamid Muxtorov. — Radikalizm juda keng tushuncha va uning ko‘plab shakli mavjud. Bu tushunchalarning har biri turli soha, g‘oya yoki yo‘nalishlarga aloqador. Radikalizmning asosiy shakllari sifatida diniy radikalizm, siyosiy radikalizm, ijtimoiy radikalizm, etnik radikalizm, ekologik radikalizm, texnologik radikalizm va ateistik radikalizm tilga olinadi.

— Radikallashuvning asosiy qurboni yoshlar, — deydi O‘zbekiston Jumalistar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov. — Ular internet orqali onsonlikcha boshqarilishga moyil. Bunda rivojlanish yo‘liga dadil kirib borayotgan davlatni taraqqiyotdan to‘xtatish uchun barcha imkoniyat ishga solinadi. Bu borada turli-tuman nayrang va bosimlar bor. Sun’iy tarzda gumanitar inqiroz keltirib chiqarish, savdo urushi, oziq-ovqat embargosi, texnika yoki xizmatlarga nisbatan sanksiyalar, harbiy cheklavlar, hatto jahon hamjamiyatini ishtirokchilardan biror-bir bahona bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bosqin qo‘llash shular jumlasidan.

O‘zbekiston singari barqarorlik va taraqqiyotni maqsad qilgan davlatlar uchun bu muammo nafaqat xavfsizlik sohasida, balki ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham jiddiy yondashuv talab etadi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetolari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhihi: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 02:20 Topshirildi — 02:25